




NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(2022- yil yanvar-oktabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 022,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **104,7** % ni tashkil etdi.




TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	976,8	1 022,4	104,7	x
Eksport 	401,8	499,9	124,4	100,0
 <u>tovarlar</u>	390,5	497,4	127,4	99,5
 <u>xizmatlar</u>	11,3	2,5	22,0	0,5
Import 	575,0	522,5	90,9	100,0
 <u>Tovarlar</u>	544,5	511,8	94,0	98,0
 <u>xizmatlar</u>	30,5	10,7	35,1	2,0
Saldo 	- 173,2	- 22,6	x	x

Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati jahonning **70** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**22,1 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**20,3 %**), Kanada (**15,6 %**), Qozog'istonda (**7,8 %**) va Fransiyada (**6,1 %**) qayd etilgan.

NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	226,4	73,8	152,6	22,1
Xitoy Xalq Respublikasi	207,5	63,8	143,7	20,3
Kanada	159,5	155,7	3,8	15,6
Qozog'iston	79,4	19,2	60,2	7,8
Fransiya	62,2	60,4	1,8	6,1
Turkiya	57,5	34,4	23,1	5,6
Turkmaniston	28,0	26,8	1,2	2,7
Yaponiya	24,9	-	24,9	2,4
Qirg'iz Respublikasi	24,7	22,5	2,2	2,4
Koreya Respublikasi	19,9	0,2	19,7	1,9

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Turkmaniston va Qirg'iz Respublikasi bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada, Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Litva, Hindiston, Germaniya, Eron Islom Respublikasi va Ukraina hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	133,6	168,6	226,4
<i>Eksport</i>	28,0	47,7	73,8
<i>Import</i>	105,6	120,9	152,6
Xitoy Xalq Respublikasi	165,2	151,3	207,5
<i>Eksport</i>	53,5	73,3	63,8
<i>Import</i>	111,7	78,0	143,7
Kanada	102,6	171,8	159,5
<i>Eksport</i>	101,1	166,7	155,7
<i>Import</i>	1,5	5,1	3,8
Qozog'iston	52,8	64,0	79,4
<i>Eksport</i>	6,3	12,7	19,2
<i>Import</i>	46,5	51,3	60,2
Fransiya	79,5	3,1	62,2
<i>Eksport</i>	78,2	-	60,4
<i>Import</i>	1,3	3,1	1,8
Turkiya	55,3	66,2	57,5
<i>Eksport</i>	25,3	34,7	34,4
<i>Import</i>	30,0	31,5	23,1
Turkmaniston	15,7	20,5	28,0
<i>Eksport</i>	15,1	18,4	26,8
<i>Import</i>	0,6	2,1	1,2
Yaponiya	28,5	17,3	24,9
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	28,3	17,3	24,9
Qirg'iz Respublikasi	36,8	6,3	24,7
<i>Eksport</i>	36,4	5,9	22,5
<i>Import</i>	0,4	0,4	2,2
Koreya Respublikasi	45,6	21,2	19,9
<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,2
<i>Import</i>	45,5	21,1	19,7

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Litva	78,7	77,0	16,0
<i>Eksport</i>	3,3	12,7	10,5
<i>Import</i>	75,4	64,3	5,5
Hindiston	3,6	2,7	15,5
<i>Eksport</i>	0,1	0,2	-
<i>Import</i>	3,5	2,5	15,5
Germaniya	47,6	12,0	14,6
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	47,4	12,0	14,6
Eron Islom Respublikasi	3,7	8,7	10,4
<i>Eksport</i>	-	1,9	2,9
<i>Import</i>	3,7	6,8	7,5
Ukraina	13,1	15,6	9,9
<i>Eksport</i>	1,9	1,6	0,4
<i>Import</i>	11,2	14,0	9,5
Afg'oniston	1,3	7,5	8,7
<i>Eksport</i>	1,3	7,5	8,7
<i>Import</i>	-	-	-
Estoniya	7,0	3,4	6,2
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	7,0	3,4	6,2
Singapur	5,0	5,9	6,0
<i>Eksport</i>	4,8	5,9	6,0
<i>Import</i>	0,2	-	-
Tojikiston	0,9	2,7	5,7
<i>Eksport</i>	0,9	2,4	5,7
<i>Import</i>	-	0,3	-
Belarus Respublikasi	0,7	6,3	3,0
<i>Eksport</i>	0,4	1,2	1,8
<i>Import</i>	0,3	5,1	1,2

NAVIOY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-oktabr)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 022 394,2	104,7
Navoiy sh.	547 353,1	88,7
Zarafshon sh.	13 244,9	111,5
G'ozg'on sh.	2 167,0	48,8
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	331 519,3	142,4
Konimex	533,2	29,2
Qiziltepa	61 833,2	3,1 b.
Navbahor	34 323,2	139,6
Nurota	7 131,9	138,0
Tomdi	2 011,1	47,3
Uchquduq	14 768,4	3,2 b.
Xatirchi	6 453,4	15,6
Bo'linmaydigan hajm	1 055,5	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



1 Navoiy sh. – 547 353,1

2 Karmana t. – 331 519,3

3 Qiziltepa t. – 61 833,2

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



1 Konimex t. – 533,2

2 Tomdi t. – 2 011,1

3 G'ozg'on sh. – 2 167,0


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **53,5** % ulush bilan **547 353,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,05** % ulush bilan **533,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **37,0 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-oktabr oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan **92,9 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **63,0 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI


(2022- yil yanvar-oktabr)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **499,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,4** % ni tashkil etdi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**61,6** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**21,1** %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**8,9** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami eksport	401,8	499,9	124,4	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,3	14,0	66,1	2,8
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	27,1	44,6	164,5	8,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,1	6,2	3,0 b.	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,3	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	242,3	308,1	127,1	61,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	85,6	105,3	122,9	21,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,0	3,2	3,1 b.	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	11,1	15,6	140,4	3,1
Xizmatlar	11,3	2,5	22,0	0,5

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2021- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalari, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, turli xil tayyor buyumlar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarining eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi **499,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga **151,9** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **30,4** % ini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022- yil yanvar-oktabr, % da)*



2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining **31,1** %), Rossiya Federatsiyasi (**14,8** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**12,8** %), Fransiya (**12,1** %), Turkiya (**6,9** %), Turkmaniston (**5,4** %) va Qirg'iz Respublikasi (**4,5** %), saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **87,6** % ni tashkil etmoqda.

**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI** *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Kanada	166 743,9	155 678,0	93,4	1
Rossiya Federatsiyasi	47 672,5	73 841,9	154,9	2
Xitoy Xalq Respublikasi	73 336,6	63 834,0	87,0	3
Fransiya	0,1	60 427,3	-	4
Turkiya	34 671,4	34 420,6	99,3	5
Turkmaniston	18 351,3	26 806,1	146,1	6
Qirg'iz Respublikasi	5 930,6	22 477,9	3,8 b.	7
Qozog'iston	12 723,2	19 220,6	151,1	8
Litva	12 753,4	10 501,5	82,3	9
Afg'oniston	7 500,0	8 746,7	116,6	10
Singapur	5 933,4	6 014,1	101,4	11
Tojikiston	2 428,2	5 676,7	2,3 b.	12
Eron Islom Respublikasi	1 926,4	2 953,8	153,3	13
Belarus Respublikasi	1 262,5	1 795,1	142,2	14
Polsha	585,9	1 769,1	3,0 b.	15
BAA	1 709,1	1 470,8	86,1	16
Ozarbajjon	131,3	1 053,2	8,0 b.	17
AQSH	671,9	437,1	65,1	18
Ukraina	1 619,2	405,0	25,0	19
Armeniya	-	392,1	-	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **40** tani tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2022- yil yanvar-oktabr)

Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	499 919,4	124,4
Navoiy sh.	355 886,6	123,2
Zarafshon sh.	1 480,6	43,7
G'ozg'on sh.	1 705,8	3,2 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	63 039,7	162,4
Konimex	366,4	167,9
Qiziltepa	42 929,4	3,7 b.
Navbahor	23 464,8	132,7
Nurota	4 771,6	145,3
Tomdi	845,5	104,0
Uchquduq	898,3	66,4
Xatirchi	4 008,2	11,9
Bo'linmaydigan hajm	522,5	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



1

Navoiy sh. – 355 886,6

2

Karmana t. – 63 039,7

3

Qiziltepa t. – 42 929,4

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



1

Konimex t. – 366,4

2

Tomdi t. – 845,5

3

Uchquduq t. – 898,3

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **71,2** % ulush bilan **355 886,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1** % ulush bilan **366,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI (yanvar-oktabr, % da)

XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,4	5,3	2,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	7,2	6,7	8,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	0,5	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	68,9	60,3	61,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,6	21,3	21,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,8	0,3	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	3,9	2,8	3,1
Xizmatlar	1,5	2,8	0,5

2022- yil yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi **7,5** punktga oshib **21,1** % ni, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlari ulushi **1,7** punktga oshib **8,9** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI

(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)




XSST tarkibi	Kanada		Rossiya Federatsiyasi		Xitoy Xalq Respublikasi		Fransiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	166,7	155,7	47,7	73,8	73,3	63,8	-	60,4
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	1,3	0,7	1,2	1,8	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	19,2	32,7	0,6	0,4	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,5	0,4	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	165,7	155,4	-	1,1	58,6	56,5	-	60,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1,0	0,3	13,0	26,7	12,8	5,1	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	-	-	-	0,1	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	8,6	11,2	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	5,1	1,0	-	-	-	-

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlar kiradi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 2,5 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 22,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (62,4 %), moliyaviy xizmatlar (21,5 %), safarlar (turizm xizmatlari) (16,0 %) va boshqa xizmatlar (0,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-oktabr, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 6 803,1 ming AQSH dollar qiymati 9 754,8 tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 52,6 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 1,4 % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Xatirchi tumanida 2 579,9 ming AQSH dollarini, Qiziltepa tumanida 2 195,3 ming AQSH dollarini, Karmana tumanida 976,1 ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida 583,3 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-oktabr)



Davlatlar	2021- yil			2022- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	1 155,1	1 245,4	9,6	1 412,5	1 763,2	25,9
Qozog'iston	10 727,8	4 262,3	33,0	4 598,9	1 593,5	23,4
Eron Islom Respublikasi	1 492,0	1 504,4	11,6	903,0	1 007,8	14,8
Afg'oniston	901,4	734,0	5,7	922,1	639,9	9,4
Rossiya Federatsiyasi	425,4	442,7	3,4	627,1	595,8	8,8
Pokiston	835,7	2 783,7	21,5	174,3	334,7	4,9
Turkiya	-	-	-	244,5	272,9	4,0
Belarus Respublikasi	1 179,0	768,0	5,9	263,3	163,2	2,4
Ukraina	51,9	31,6	0,2	189,0	116,3	1,7
Iroq	206,9	215,0	1,7	119,8	97,1	1,4
Litva	20,7	3,2	0,1	159,8	74,0	1,1
Polsha	-	-	-	84,2	72,7	1,1
Bolgariya	-	-	-	21,0	31,5	0,5
Isroil	-	-	-	13,5	27,0	0,4
Estoniya	232,0	42,9	0,3	19,5	9,8	0,1
Tojikiston	-	-	-	2,3	3,7	0,1
Boshqa davlatlar	1 045,9	890,7	7,0			

* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Xitoy Xalq Respublikasi (**25,9 %**), Qozog'iston (**23,4 %**), Eron Islom Respublikasi (**14,8 %**) va Afg'oniston (**9,4 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-oktabr)

import

2022- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi **522,5** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **90,9** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**37,8** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**31,1** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**16,1** %) ga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi **511,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **10,7** mln. AQSH dollariga yetdi.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami import	575,0	522,5	90,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,2	12,1	59,7	2,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,3	11,3	2,1 b.	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,6	9,5	6,0 b.	1,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	1,8	6,1 b.	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	66,9	84,0	125,5	16,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	95,3	162,6	170,6	31,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	315,9	197,3	62,4	37,8
Turli xil tayyor buyumlar	39,0	33,2	85,2	6,4
Xizmatlar	30,5	10,7	35,1	2,0

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**37,8 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**31,1 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**16,1 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**6,4 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar (**6,1** barobar), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**6,0** b.), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**2,1** b.), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**70,6 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**25,5 %**) o'sgan.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-oktabr oyida import hajmi **522,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-oktabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **43,4** va **56,6** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya, Koreya Respublikasi va Hindiston) jami importning **84,2** % ini tashkil qiladi, bu **439,7** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022-yil yanvar-oktabr, % da)*



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Rossiya Federatsiyasi	120 918,0	152 566,9	126,2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	77 980,2	143 732,3	184,3	2
Qozog'iston	51 295,3	60 181,3	117,3	3
Yaponiya	17 298,5	24 893,9	143,9	4
Turkiya	31 502,1	23 088,4	73,3	5
Koreya Respublikasi	21 116,8	19 731,4	93,4	6
Hindiston	2 531,0	15 509,0	6,1 b.	7
Germaniya	12 006,3	14 578,6	121,4	8
Ukraina	13 971,3	9 462,3	67,7	9
Eron Islom Respublikasi	6 752,2	7 489,2	110,9	10
Estoniya	3 377,9	6 235,8	184,6	11
Litva	64 277,8	5 517,9	8,6	12
Kanada	5 090,7	3 855,5	75,7	13
Tayvan	233,5	2 742,0	11,7 b.	14
Latviya	279,2	2 655,6	9,5 b.	15
Pokiston	9,9	2 501,6	251,6 b.	16
Finlyandiya	937,4	2 350,9	2,5 b.	17
Qirg'iz Respublikasi	355,0	2 182,0	6,1 b.	18
AQSH	92 124,2	1 970,7	2,1	19
Italiya	6 609,9	1 941,2	29,4	20

2022- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha **58** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-oktabr)

Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	522 474,8	90,9
Navoiy sh.	191 466,5	58,4
Zarafshon sh.	11 764,3	138,6
G'ozg'on sh.	461,2	11,8
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	268 479,6	138,4
Konimex	166,8	10,4
Qiziltepa	18 903,8	2,3 b.
Navbahor	10 858,4	157,2
Nurota	2 360,3	125,2
Tomdi	1 165,6	33,9
Uchquduq	13 870,1	4,3 b.
Xatirchi	2 445,2	32,1
Bo'linmaydigan hajm	533,0	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



1

Karmana t. – 268 479,6

2

Navoiy sh. – 191 466,5

3

Qiziltepa t. – 18 903,8

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



1

Konimex t. – 166,8

2

G'ozg'on sh. – 461,2

3

Tomdi t. – 1 165,6

Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani **51,4 %** ulush bilan **268 479,6** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Konimex tumani **0,03 %** ulush bilan **166,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, % da)

XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,4	3,5	2,3
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,9	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,3	1,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,9	11,6	16,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,5	16,6	31,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	62,6	54,9	37,8
Turli xil tayyor buyumlar	5,3	6,8	6,4
Xizmatlar	4,6	5,3	2,0


2022- yil yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida 2021- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **16,6 %** dan **31,1 %** gacha, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda importining ulushi **11,6 %** dan **16,1 %** gacha, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallarda esa **0,3 %** dan **1,8 %** gacha o'sdi.

2022- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **10,7** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,0** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35,1** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**65,8** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**34,0** %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Tel.: (99879) 223-50-43